

PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARIDA BOBUR SIYMOSI
TAHLILI**Rahmonova Mahzuna***O'zDJTU talabasi**Ilmiy rahbar: Yuldasheva F.F**O'zDJTU katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali Zahiriddin Muhammad Boburning deyarli 40 yillik hayoti bilan tanishishingiz mumkin. Maqolada Boburning shaxsiyati, ichki kechinmalari, tuyg'ulari va taxtni saqlab qolish uchun qancha jangu-jadallarda kezgani hamda adolatli podshoh bo'lish yo'lidagi urinishlari, chin insoniy hislari haqida bilishingiz mumkin. Shuningdek, Boburning atrofidagi insonlar ya'ni , opasi - Xonzoda Begim, ishonchli mulozimlari – Qosimbek va Tohir, Shayboniylar sulolasi vakili – Shayboniyxon, Hindiston hukmdori – Ibrohim Lo'diyning Bobur hayotiga ta'siri to'g'risida ma'lumot topishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *obraz, badiiy obraz, tarixiy roman, qahramonlik, sarkarda, Boburiylar sulolasi, malika , badiiy adabiyot.*

Аннотация: *Благодаря этой статье вы можете познакомиться с почти 40-летней жизнью Захириддина Мухаммада Бабура. В статье можно узнать о личности Бабура, его внутренних переживаниях, чувствах, о том, сколько битв он провел за сохранение престола, и о его попытках стать справедливым королем, и о его истинных человеческих чувствах. Также можно найти сведения о влиянии людей, окружавших Бабура, т. е. его сестры - Ханзода Бегум, его доверенных слуг - Касымбека и Тахира, представителя династии Шайбани - Шайбани-хана, правителя Индии - Ибрагима Ло'ди на Жизнь Бабура.*

Ключевые слова: *образ, художественный образ, исторический роман, героизм, полководец, династия Бабуриды, царица, вымысел.*

Abstract: *Through this article, you can get acquainted with almost 40 years of life of Zahiriddin Muhammad Babur. In the article, you can learn about Babur's personality, inner experiences, feelings, and how many battles he fought to preserve the throne, as well as his attempts to become a just king, and his true human feelings. You can also find information about the influence of the people around Babur, i.e., his sister - Khanzoda Begum, his trusted servants - Kasimbek and Tahir, the representative of the Shaibani dynasty - Shaibani Khan, the ruler of India - Ibrahim Lodi on Babur's life.*

Keywords: *image, artistic image, historical novel, heroism, warlord, The Mughal dynasty, queen, fiction.*

Ma'lumki, inson hayotida sharoitning o'ziga xos o'rni bor. Shuning uchun u tarixiy asarda – inson xarakteri, shaxsi qahramon yashayotgan va harakat qilayotgan sharoit

bilan bog'liq ekanini ko'ramiz. Inson muhit ta'siri ostida o'z xarakteri, imkoniyatlari doirasida o'zgaradi. Mustahkam irodali, kuchli xarakterli shaxs o'tkinchi muhit ta'siriga to'liq ma'noda bo'ysunmaydi. Muhitga qarshilik ko'rsatish tuyg'usi ularda kuchli rivojlangan bo'ladi. Ba'zi xarakterlar esa tezda o'tkinchi muhit ta'siriga tushib, unga bo'ysunadilar. Bobur – ham shoh, ham shoir. Uning ichki dunyosi juda rang-barang va ayni vaqtda murakkab. Bu murakkablik bir shaxs timsolida mohir sarkarda hamda jahongirlik, fotihlik bilan chiqisha olmaydigan gumanist ruhiyati mujassamligida namoyon bo'ladi. “Yulduzli tunlar”dagi tarixiy sharoitning badiiy talqini haqida adabiyotshunoslar bir-biriga zid fikrlar bildirishgan va uni Boburning sarkardalik mahorati tasvirlangan epizodlar misolida tadqiq qilishgan.

Holbuki, mantiqan qaraganda ham tarixiy sharoit faqatgina jangu jadallardan iborat emas. Tarixiy sharoit qahramon yashagan zamon va makonga xos bo'lgan barcha unsurlarni o'z ichiga oladi. Ularning barchasini bir asarda ko'rsatishning imkoni yo'q. Shuning uchun ham Pirimqul Qodirov Bobur hayot tarzi va tarixiga taalluqli belgilarnigina badiiyat mezonlari asosida talqin qilgan. Romanning birinchi bobi “Quva. Qil ustida turgan taqdirlar” deb nomlangan. Buni ko'rgan o'quvchi da'fatan bu bobda makon tasviri ustun ekan degan xulosaga kelishi mumkin. Aslida esa yozuvchi Pirimqul Qodirov asarni vaqt tasviridan boshlagan: “Milodiy 1494- yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuk bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdiyu, kechki payt birdan jala quyib berdi”. [3, b]

Muallif “1494 yilning yozi”ni bekorga ta'kidlamagan. Birinchidan, asosiy e'tiborini shu davrda bo'lib o'tgan voqealarga kitobxonni jalb etmoqda. Ikkinchidan, Bobur hayotida, umuman Farg'ona vodiysining aholisi uchun shu yilgi saraton alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlagan. Uchinchidan, eng asosiysi, to'g'ridan-to'g'ri inson, shaxs, jamiyat taqdiri, uning taraqqiyotida vaqtning roli birlamchi ekanligiga urg'u bergan. Romandagi obrazlar bilan bog'liq bo'lgan barcha voqealar rivojining asosi “milodiy 1494 yilning yozi” bilan uzviy bog'liqdir. Romandagi vaqt bosh qahramon – Boburning hayot yo'lini yoritishga vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunga qaramasdan, asardagi vaqtni – Tohirning vaqti, Robiyaning vaqti, Fazliddin tog'aning vaqti, Umarshayx mirzo va boshqa obrazlarning vaqtlariga bo'lish mumkin. Bu obrazlar va ularga ajratilgan vaqt tasviri bir maqsadga, Bobur yashagan vaqt va muhitni to'liqroq gavalantirishga qaratilgan. Vaqt, muhit ham Bobur obrazining turli qirralarini badiiy bo'yoqlar yordamida kitobxon ko'z o'ngida yanada yorqinroq chizilishiga xizmat qiladi. Vaqt Boburning inson, shaxs, sarkarda bo'lib yetishishida, ayniqsa, xarakterining shakllanishida va davlatni boshqarish hamda uning tartiblarini o'rganishida, o'zidagi bir-biriga zid bo'lgan shoh va shoirga xos bo'lgan sifatlarning yuzaga chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi Bobur xarakterini yaratishda obrazlarning xatti-harakati orqali davr ijtimoiy hayoti va tarixiy shart-sharoitlarni, qahramon ma'naviyatini, yetuk inson sifatidagi faoliyatini ochib berishga alohida e'tibor beradi.

Haqiqatan ham, “Yulduzli tunlar” romanida tarixiy-ijtimoiy muhit, ya’ni taxt manfaatlari asta-sekin Boburning fikrlariga, uning adolatli qarashlariga, pokiza tuyg’ulariga tazyiq o’tkaza boshlaydi. Tarixiy memuar manbalardan bu temuriy shaxzodaning juda ko’p xususiyatlari bizga ma’lum. Lekin bu manbalar Bobur to’g’risida oddiy axborot beradi, xolos. Asarda Bobur faoliyatini aks ettiradigan tarixiy voqealarning qahramon xarakterini ochishga bevosita xizmat qiladigan qismini tanlab, yozuvchi eng kichik bir epizodga ham alohida badiiy jilo beradi. San’atkor tarixiy voqealar bilan cheklanmaydi, Bobur hayotidagi hodisalarning bir-biriga chambarchas bog’lanishini ishonchli badiiy to’qimalar bilan mustahkamlaydi. Romanning boshida biz Tohir, uning sevgilisi Robiya, uning tog’asi Fazliddin, Samarqand shohi Sulton Ahmad, Koshg’ar hukmdori Abubakr, Toshkent hukmdori Mahmudxon, Umarshayx va uning ikki o’g’li Bobur hamda Jahongir Mirzolar bilan tanishamiz. Bobur otasi vafotidan so’ng Andijonda taxtga ega bo’lishi lozim edi. Ammo ona boshqa ukasi (Jahongir Mirzo) o’z avlodlari tomonidan, da’vogar hukmdor sifatida, oldinga chiqariladi, bu tugundir, romanda Bobur yechishi kerak bo’lgan bunday tugunlar shu bittagina emas, keyinchalik Bobur bilan temuriylar, Shayboniyxon va Hindiston podshosi Ibrohim Lodiy o’rtasida ham birin-ketin tugunlar paydo bo’la boradi va Bobur ularni chidam, aql, kuch, jasorat va mardlik bilan yechib boradi ham inson sifatida kamolga yetadi; dastlab yosh hukmdor, so’ng jangchi, sarkarda, shoir, olim sifatida namoyon bo’ladi. Romandagi voqea Boburning Samarqandni qamal qilib olishi va ochlik, keyin Samarqand va Andijondan mahrum bo’lishi, Temuriylar bilan jang qilishlari, Shayboniyxon degan kuchli ko’chmanchi turkiy raqibga duch kelib qolishi va undan yengilishi, Kobulni jangsiz egallashi va Hindistonni zabt etishi, Shoh Ismoil bilan sulh tuzishi yo’li bilan rivojlanadi. Bobur yengilish va o’lim tahdidlari hamda og’ir azoblardan tushkunlikka tushmaydi, uni aniq maqsad, temir iroda, jur’at, aql, ulug’ niyat, farosat, yuksak insoniylik va umid saqlab qoladi. U – o’z davrining kishisi. Hindistonda, Ibrohim Lodiyning onasi Boburga zahar berishi kulminatsiyadir. Boburning hayoti saqlab qolinadi, ammo u kasalvandlikka duchor bo’ladi. U oxir shohlikni o’g’li Humoyunga topshiradi, jahongirlikda yurib sevikli xotini Mohimga ko’p ozor berganligi uchun undan uzr so’raydi. U Movarounnahrni yagona davlat qilish niyatiga erisha olmaydi, bu - yechim, Boburiylar bir-biri bilan jiqqa musht bo’ladi, Temuriylar izmidan boradi va ularni oxiri inglizlar tugatadi. Bu - ham yechimning davomi. “Yulduzli tunlar” romani kompozitsiyasi negizida ham asardagi g’oya va maqsadida ham ularning ifodasi bo’lgan Boburning ko’pqirrali va murakkab xarakteri turadi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburiylar sulolasi asoschisi, o’z zamonasining qobiliyatli va ko’p qirralari insonlaridan bo’lgan. Pohshoh bo’lishiga qaramay, tarixdan o’chmas g’azallar va asarlar yozgan. Zahiriddin umri davomida vatan ishqida yonib o’tgan va shu ishq natijasida o’z dardini she’rlar, ruboiylar orqali bayon qilgan. Bobur o’z navbatida adolatli podshoh, mehribon uka va ota, suyuqli turmush o’rtoq va ardoqli san’at arbobi.

1. Pirmqul Qodirovning "Yulduzli Tunlar" asari //Toshkent " ADABIYOT UCHQUNLARI" 2018 3,b
2. Fayllar.org.uz
3. Bookmark - Mutolaa sehri// Facebook